

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR AXLOQIY TARBIYAVIY QARASHLARI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S MORAL AND EDUCATIONAL VIEWS

МОРАЛЬНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Ilmiy rahbar: Xurshid Samatov O'lmastonovich

Primqulova Sarvinoz Odil qizi

Toshkend Axborot Texnalogiyalar Universiteti

Samarqand filiali Kompyuter injiniringi

KI23-03 guruxi talabasi. Telefon raqam:+998931322104

Elektron pochta: sarvinozpirimqulova3@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu ilmiy maqola orqali ham shoh ham shoir XV-XVI asr badiiy adabiyot klassikasining yorqin namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning o'z tarjimayi holi bo'lgan "Boburnoma" asaridagi diniy va dunyoviy qarashlar oilaviy muammolar mamlakatda kechgan parokandalik Shayboniyxon bilan bo'lgan to'qnashuvlar Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy faoliyati hamda Bobur tomonidan Shimoliy Hindiston bo'ysundirilib Hindistondagi saltanat barpo etilganligi haqida bataysil ma'lumotga ega bo'lasiz

Kalit so'zlar: Boburnoma, Voldiya, Humoyunnoma, Bobur, axloqiy, qarash

Barchamizga ma'lumki XV asrda Temuriylar saltanatida yimirilish holati kuzatilib davlat parokandalikka uchrayotganda 1483-yil 14-fevral kuni Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topdi. 1494-yil Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli vafot etdi va saltanat taxtiga 12 yoshli Zahiriddin Muhammad Bobur o'tirdi. U yosh bo'lishiga qaramay saltanat ishlarini ishonchli beklardan Xoji Qozi hamda onasi Qutlug' Nigorxonimga tayanib davlatni idora qildi. 1497-yil Bobur Mirzo Samarqand taxtini qo'lga kiritdi. Yosh sarkardaning muvaffaqiyatini ko'rolmagan isyonkor kuchlar 1498-yil Andijon taxtiga Boburning

ukasi Jahongir Mirzoni o‘tqazishdi. O‘rtada isyon bo‘lgan jarayonlarga Bobur qalamida mana bunday misralar mavjud edi: Charxning men ko‘rmagan javru jafosi qoldimu? Xasta ko‘nglim ko‘rmagan dard-u balosi qoldimu? Ey ko‘ngul gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb, Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?

Samarqandni olish uchun bo‘lgan qiyinchiliklar jang-u jadallar Boburni og’ir ahvolga soldi. Ayni damda u ikki marta otasidan meros Farg’ona taxtini ham qo‘ldan boy berdi va ma’lum muddat nochor hayot kechirdi. Yaratganning muruvvatiga umid bog’lab yashadi. Yosh sarkardaning “Xulqingni rost qilgil har sorigaki borsang” degan jumlalari aslzodalarga xos ulugvorlik, saxovatpeshalik, ertangi kunga umidvorlik tuygulari uchun haqiqiy madhiya ro‘lini o‘ynardi. 1501-yil Shayboniyxon Samarqandni Bobur Mirzodan tortib oldi va ko‘plab jang-u jadallardan so‘ng Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi faoliyati boshlandi. Kobul xazinasining tagi ko‘rinib qolgani bois davlat xarajatlari qolaversa askarlarni boqish uchun mablag zarur edi. Shu bois Boburning tarafdorlari o‘sha paytda Hind yarimorolining Afgoniston deb atalgan yuqori qismi hozirgi Pokiston chekkasiga tez-tez yurishlar qilib turardi. Omad ketidan omad kelib, qo‘shin Lo‘diylar bilan to‘qnashdiva 1520-yil 20-aprilda Bobur Shimoliy Hindistonning poytaxti Dehli taxtini egalladi. Boburning Markaziy Osiyolik bahodir sarkarda va davlat arbobi sifatida o‘z baxti va taxtini yaratish uchun qilgan say harakati o‘sha payt uchun zamon taqazosi va tarixiy haqiqatdir. Bobur Hindistonda o‘z saltanatiga asos solganda uning atrofida Markaziy Osiyodan unga hamroh bo‘lib kelgan amr va beklar, sadoqatli navkarlari o‘rab turardi. Ularning yordamida Temuriylarga xos davlat boshqaruvi, tizimi o‘rnatildi biroq Bobur o‘zi ko‘zlagan siyosiy va huquqiy rejalarini amalga oshirishga ulgurmay 1530-yilda yorug’ olam bilan xayrlashdi.

Boburning fe’l atvori o‘z zamondoshlari va tarixchilar tomonidan ko‘klarga ko‘tarib maxtalardi. Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” kitobida “Boburni juda ko‘p fazilatlar bezab turar va u behisob olivjanob hislatlarga burkanib mardligi va saxovatpeshaligi hamma hislatlaridan ustun turar edi” degan. Eng qizigi shundaki S. Leyin Poul ya’ni ingliz tarixchisi Zahiriddin Muhammad Boburni “Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi” deb tariflagan. Haqiqatdan ham Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati, siyosati, diniy va dunyoviy qarashlari butunboshli jamiyatga Bobur tomonidan asos solinib 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi tomonidan bizga qolgan ulkan axloqiy me’ros muhim ahamiyat

kasb etadi. Shu boisdan ham biz mana shunday ajdodlarga munosib avlod bo‘lmog‘imiz lozim. Movarounnahr XV asr oxirida o‘zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan ko‘p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoxda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo‘ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog‘alariga qo‘shilib, uni jismonan yo‘qotish payiga tushadi. O‘z amakisi va tog‘asi bo‘lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2—3-yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. U turli g‘azallar muallifi sanaladi. Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g‘azali va „Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq.

Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yor-u diyor sog‘inchi va visol ilinji, takdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona noso‘zliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboilarida, tuyuq va masnaviyalarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u

axloqi, noz-u karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Boburning uz she’riy asarlarini to‘plib, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo „Boburnoma“ning 1518-1519-yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan.

Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumi hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida unt, teatr, kutubxona, milliy bog‘ („Bog‘i Bobur“) bor. Bobur milliy bog‘i majmuasida „Bobur va jahon madaniyati“ muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bунyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiyev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti insonni har tamonlama rivojlanishiga, turli xildagi holatlardan chiqishni, ruhan, manan kuchli bo‘lishni o‘rgatadi.

Foydalilanilgan adabiyodlar ro‘yhadi

1. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
2. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
3. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
4. Boburnoma 1494-1530-yillar davri.
5. Gafurjon Satimov “Markaziy Osiyo va Hindistonda Boburiylar davri”.
6. Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallari5.“Tarixi Rashidiy”.